



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



30 NOYABR
№34

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
16-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-16**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-16**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 31 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Jo'rayeva Muxlisa Umarovna XALQ HUNARMANDCHILIGI.....	7
2. Qo'shayeva Sanobar Teshayevna AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA UNDAGI IMKONIYATLAR	9
3. Qodirova Gulshod Sharofitdinovna MAKTABLARDA TEXNOLOGIYA FANINING O'QITILISHI	11
4. Sattorova Fotima Izzatullo qizi KASB TANLASH IMKONIYATI	13
5. Абдуллаева Моҳигул Эшқурбоновна 2-СИНФ МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	15
6. Бабаджанова Н.А., Шамшиметова Г.Т. ОРГАНИЗАЦИЯ УСЛОВИЙ ТРУДА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ШВЕЙНОГО ПРОИЗВОДСТВА	17
7. Базарбаева Г.Г., Абдужабборовна Д.А., ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОДИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИЙ ДЛЯ ВВОДА В БАЗУ ДАННЫХ ПРОЦЕССА ПРОГНОЗИРОВАНИЯ.....	19
8. Kulatova Nargiza Rustamovna TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	21
9. Сайфиева Ойгул Нематовна, Муминов Зиёдулло Музаффар угли РОБОТЫ БУДУЩЕГО, КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА	23
10. K.Xudoyberdiyeva, O.Xodjayeva, Sh.G.Madjidova YANGI MODELLARNI ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OS- HIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ATROF-MUHITGA TA'SIRINI O'RGANISH	25
11. Axmedova Xolisa Ilxomovna POLISEMANTIK SO'ZLARNI KONTEKSTDA SEMANTIK TAHLIL QILISH MODELLARI	27



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ХАЛҚ ХУНАРМАНДЧИЛИГИ

Jo`rayeva Muxlisa Umarovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktab

Texnologiya fani o`qituvchisi

Telefon: +998 99 953 37 45

Annotatsiya: Ushbu maqola hunarmandchilikning inson hayotidagi o`rni, hunarmandchilikning turlari va ularning shakllanishi, hunarmandchilik orqali mahsulot ishlab chiqarish, hunarmand ustalar, shu bilan birgalikda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, tanlovlar xususida.

**Kalit so`zlar:** hunarmandchilik, ishlab chiqarish, ganchkorlik, o`ymakorlik, bozor, mahsulot, ustalar, ganchkorlik maktabi.

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulolchilik, duradgorlik, konchilik, tikuvchilik, binokorlik, toshtaroshlik, o`ymakorlik, kashtado`zlik, temirchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo`zlik, bo`yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslar mavjudligiga qarab rivoj topgan, masalan, paxta va pilla bor yerda – to`qimachilik yangi xomashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) – kulolchilik, jun va teri ko`p yerda – to`qimachilik va konchilik shunga qarab kosibchilik, o`rmonlar ko`p yerda – yog`ochsozlik, madanlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish, temirchilik va boshqalar. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;
- 2) buyurtma asosida mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;
- 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

Uy hunarmandchiligi o`rta asrlarda hunarmandchilikning eng keng tarqalgan turi bo`ldi. Hunarmandchilikning bu turi natural xo`jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji buyurtma asosida hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozor uchun hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o`sishi bilan uzviy bog`liq. Natijda hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo`yicha ixtisoslash bordir.

O`zbekistondagi hunarmandchilik chuqur ixtisoslashgan bo`lib, o`zida xilma-xil kasb-korlarni birlashtirgan. Masalan, naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorlik, metall o`ymakorlik, yog`ochlarni kuydirib ishlash, kulolchilik, kosibchilik, mahsido`zlik, sangtaroshlik, temirchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, qulfsozlik, misgarlik, chilangarlik, zargarlik kabi 150 dan ziyod sohalarga ega bo`lgan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasi belgilangan.

Bugungi kunda naqqoshlik san`ati ancha rivojlantirilib, turli xil zamonaviy binolarga zeb berish ishlarida keng qo`llanilmoqda. Naqqoshlik namunalari, ayniqsa, yurtimizda qurilayotgan binolar va madaniy saroylarida ko`rish mumkin. Bunday yangi binolarni ko`rib ko`zimiz quvonchga, dilimiz zavq-shavqqa to`ladi.

Toshkent ganchkorlik maktabi o`ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu maktabga xos naqshlar nozikligi, aniq simmetrik taqsimga egaligi, jozibadorligi bilan boshqa maktab uslublaridan farq qiladi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyondalari safida Usmon Ikromov, Anvar Po`latov kabi qator yetuk ustalar faoliyat olib borishgan.

Buxoro ganchkorlik maktabi san`atining eng rivojlangan o`chog`i hisoblanib, o`yma



ganchlarining yirik hamda o'ziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyondalaridan biri akademik usta Shirin Mutodovdir. Buxoro ganchkorlik maktabi namoyondalaridan usta Safar, usta Adiz, usta Savri, usta Qurbon Yo'ldoshev, usta Ibrohim Hafizov va boshqalarning ishlari nafaqat bizning yurtimizda, balki jahonda ham tanilgandir.

Milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni yanada rivojlantirish, amaliy san'atning an'anaviy turlarini saqlash va qayta tiklashga, hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini va sifatini oshirish hamda hunarmandchilik sohasidagi kasblarni yoshlarga o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, "Hunarmand" uyushmasi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan o'tkazilayotgan "Yosh ijodkorlar", "Usta-shogird" ko'rgazmalari, "Mustaqil yurt hunarmandlari" kabi ko'rik-tanlovlar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. A. Maksumova, Q. M. Abdullayeva. Xalq hunarmandchiligi. Toshkent.2008-yil.
2. O'. O. Tohirov, I. Karimov. Texnologiya. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2019-yil.



AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA UNDAGI IMKONIYATLAR

Qo'shayeva Sanobar Teshayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-umumta'lim maktabi

Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Telefon: +998 90 619 01 30

Sanobar270177@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, insonlar uchun ahamiyatli jihatlari hamda imkoniyatlari, shuningdek, uning axborotni o'zgartirish va qayta ishlash tomonlari, shu bilan birga, elektron o'quv adabiyotlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya, kompyuter, AKT, texnologiya, multimedia, elektron manba.

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. "Texnologiya" atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "fan" degan ma'noni anglatadi. Ushbu so'zning zamonaviy tushunchasi muhandislik va ilmiy bilimlarni muayyan amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashni o'z ichiga oladi. So'ngra axborot-kommunikatsiya texnologiyasi bu axborotni o'zgartirish va qayta ishlashga qaratilgan texnologiya. Ammo bu hammasi emas. Aslida, axborot kommunikatsiya texnologiyalari – bu turli xil mexanizmlar, qurilmalar, algoritmlar, ma'lumotlarni qayta ishlash usullarlarini tavsiflovchi umumlashtiruvchi tushuncha. Eng muhim zamonaviy AKT qurilmasi bu zarur dasturiy ta'minot bilan jihozlangan kompyuter. Ketma – ket ikkinchisi, ammo unchalik muhim bo'lmagan uskunarlar ularga joylashtirilgan ma'lumotlar bilan aloqa vositasidir.

Zamonaviy jamiyatdagi axborotlashtirish jarayonlari, shuningdek, ular bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ta'lim faoliyatining islosh qilish zamonaviy AKTni takomillashtirish va keng tarqatish bilan tafsivlanadi. Ular zamonaviy masofaviy va ochiq ta'lim tizimida ma'lumotlarni uzatish va o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash uchun faol foydalanilmoqda. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat AKT sohasi ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki ularning to'g'ridan to'g'ri faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning professional qo'llanishi uchun ham javobgar bo'lishi shart.

Kompyuter tarmoqlari va shunga o'xshash vositalar tashkil qilish bilan ta'lim jarayoni yangi sifatga o'tadi. Avvalo, bu dunyoning istalgan nuqtasidan tezkor ma'lumot olish qobiliyatiga bog'liq. Internetning global kompyuter tarmog'i tufayli sayyoramizning axborot resurslariga (elektron kutubxonalar, fayllar omborlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa) bir zumda kirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ushbu mashhur manba ikki milliarddan ortiq turli multimedia hujjatlarini nashr etdi. Tarmoqqa kirish imkoniyatini ochadi va boshqa keng tarqalgan AKT texnologiyalaridan, shu jumladan, yangiliklar guruhlari, elektron pochta, chat, ro'yxatlar pochta ro'yxatlaridan foydalanishga imkon beradi. Telekommunikatsiya tarmoqlarida samarala qidiruvni tashkil qilish uchun avtomatlashtirilgan qidiruv dasturlaridan foydalaniladi, ularning maqsadi dunyo bo'ylab internet tarmog'ining turli manbalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va foydalanuvchiga ularga tezkor kirish imkoniyatini berishdir. Qidiruv tizimlari tufayli siz hujjatlar, multimedia fayllarini, odamlar va tashkilotlar haqidagi manzil ma'lumotlarini, dasturiy ta'minotni topishingiz mumkin. AKTdan foydalanish, o'quv, uslubiy va ilmiy ma'lumotlarga keng kirish imkoniyatini ochishga imkon beradi, shuningdek, tezkor ravishda konsalting yordamini tashkil qilish, shuningdek, ilmiy va tadqiqot faoliyatini modellashtirishga imkon beradi. Va, albatta, real vaqtda virtual darslar (ma'ruzalar, seminarlar) o'tkazish.

Bugungi kunda ta'limning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masofaviy va ochiq ta'lim nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lgan bir nechta materiallarni taqdim etishni ta'minlaydi. Ulardan biri televidion va video yozuvlar. Video va tegishli AKT vositalari ko'plab talabalarga eng yaxshi o'qituvchilar ma'ruzalari haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Video yozuvlardan maxsus jihozlangan sinflarda ham, uyda ham foydalanish mumkin. Qizig'i shundaki, Yevropa va Amerika



o`quv kurslarida asosiy materiallar videotasvirlarda va bosma shaklda namoyish etiladi.

Elektron o`quv adabiyotlari – bu o`rganilgan ma`lumotlarni butun hajmini uzatish va saqlashga imkon beruvchi juda kuchli texnologiya. Ular kompyuter tarmoqlarida ham tarqatiladi va optik vositalarda yozib olinadi. Bunday material bilan individual ishlash ma`lumotlarini chuqur anglash va o`zlashtirishga imkon beradi. Ushbu texnologiya (tegishli takomillashtirilgan holda) mavjud kurslardan individual mashg`ulotlarda va olingan bilimlarni o`z-o`zini tekshirishda foydalanishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. B. Boltayev, M. Mahkamov. Informatika. Darslik. 7-sinf. Toshkent. 2009-yil
2. A.A.Abduqodirov, A.G.Hayitov. Axborot texnologiyalari. Toshkent. 2002-yil
3. Internet ma`lumotlari.



МАКТАБЛАРДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИНГ О'QITILISHI

Qodirova Gulshod Sharofitdinovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab

Texnologiya fani o'qituvchisi

Telefon: +998 99 946 11 35

Annotatsiya: Ushbu maqola texnologiya tushunchasi, turlari va bu fanning maktablarda o'qitilishi, o'qitish metodikasi, texnologiya fanini o'qitishda ta'limiy vositalardan foydalanish hamda bu fanning tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Kalits o'zlar: texnologiya, o'qitish metodikasi, metod, qishloq xo'jaligi, zamonaviy texnologiya.

Texnologiya (yunoncha techne - san'at, mohirlik, uquv) – sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi texnologiyasi va boshqalar.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani pedagogik fanlardan biri bo'lib, fanining asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beradi. O'quvchilarni mehnatga tayyorlash va ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malaka va ko'nikma malakalarni egallashni ta'minlaydi, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga tayyorlaydi.

Texnologiya ta'limining tarbiyaviy ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda axloqiy sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya fanida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatlarining to'g'ri motivlari asosida tarbiyalaydi, shaxsning har bir ongli mehnatkashi uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanishida yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zari yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarini tarbiyalaydi.

Texnologiya fanini o'qitishda turli metodik vositalardan foydalanish talab etiladi. Shu jumladan, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik vositlaridan unumli foydalanish, grafoproektoryordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogic yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim ta'limiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, axborot kommunikativ texnologiyalarni qo'llash nazarda tutiladi. O'quvchida axborot texnologiyalardan, kichik guruhlarda ishlash, blits texnologiyasi, zig-zag usuli, aqliy hujum, izlanish, mustaqil ish, bahs-munozara usullaridan foydalaniladi. Shuni aytish mumkinki, texnologiya darslarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogic texnologiyalarni joriy etish natijasida o'quvchilarda texnologiya faniga bo'lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg'ulotlarda mehnat ob'yektlarini bajarish bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'lishi, mehnat operatsiyalarini bajarish bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

Texnologiya darslarida ta'lim tamoyillaridan foydalanib o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish.
2. Texnologiya fanidagi uzviy va uzluksiz kasb-hunar ta'limi tamoyillariga binoan o'qituvchi faoliyatida ta'lim tamoyillarining o'rnini belgilashda o'quvchining bilish qobiliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlang'ich ta'lim tamoyillarini asos qilib olish muhim ahamiyatga ega.
3. Texnologiya fanining tarbiyaviy xarakteridagi tamoyili tarbiyalovchi ta'limning asosiy qoidalari; dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy sifatlarini va irodani tarbiyalash, tarbiyani shakllantirish, qobiliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.
4. Texnologiya fanining ilmiylik tamoyillari ilmiy-tabiat va jamiyat qonunlariga mos keluvchi hamda asoslangan bilim-o'quvchi ongini haqqoniy rivojlantirishda yetakchi o'rinni egallaydi.
5. Texnologiya fanining ketma-ketlik tamoyili butun borliqning o'zi ma'lum ketma-ketlik bo'lishi zarur.



6. Texnologiya fanining tushunarli bo`lish tamoyili ta`limning o`quvchi yoshlar dunyoqarashi tushunchalariga mosligi, yangi bilimlarni o`quvchi ongidagi bilimlar bilan bog`lab, tushunarli qilib turmush tajribasiga asoslanish e`tiborga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. R. A. Mavlonova, X. R. Sanoqulov. Mehnat va uni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma. Toshkent. 2007-yil.
2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida texnologiya fanini o`qitishning muammolari va yechimlari. Ilmiy-uslubiy maqolalar to`plami.



KASB TANLASH IMKONIYATI

Sattorova Fotima Izzatullo qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab

Texnologiya fani o'qituvchisi

Telefon: +998 90 513 86 04

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasblarning paydo bo'lishi, uning turlari, tanlash yo'llari, kasb haqida ajdodlarning fikri, kasb tanlashda inson salomatligining o'rni kabi ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, mutaxassislik, mehnat qilish, sohalar, kasb-hunar.

Ibtidoiy jamoada kasb tanlash muammosi bo'lmagan, chunki inson hayoti uchun kerak bo'lgan hamma ishni bajara olgan – ovqat, olov topish, o'zini xavf-xatardan himoyalash. Insoniyat jamoalari rivojlangan sari asta-sekin mehnat qilishni o'rganish amalga osha boshladi – oldin dehqonchilik va chorvachilik, keyinchalik hunarmandchilik va savdo-sotiq sohaları paydo bo'ldi. Moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishi bilan odamlarning faoliyat olib borishlarida qiyinchilik kelib chiqq boshladi.

“Kasb” yoki “kasb qilmoq” kabi so'z va tushunchalar arab tilidan kirib kelgan bo'lib, kasaba fe'lining o'zagi hisoblanadi. Arab tilidagi “kasaba” so'zi qo'lga kiritmoq, ishlab turmoq, qozonmoq, biror ishni bajarmoq, qandaydir foyda-manfaatga erishmoq, yutuqqa ega bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

O'zbek tilida kasb deb, kishining rizq talabida muayyan ish, faoliyat turi bilan davomli tarzda shug'ullanishga aytiladi. Buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risidagi qarashlarida: “Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-fazilatga ega bo'lmoq kerak”, - deb ta'kidlaydi.

Unsure-1-Maoliy Kaykovusning sharq xalqlari orasida keng tarqalgan “Qobusnoma” axloqiy-ta'limiy asarida esa: “Ey farzand, ogoh bo'li, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mo'g'ilon (tikanli buta)ning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mo'g'ilon yanglig' na o'ziga na o'gaga foyda berur”, deb keltiriladi.

Hozirda 40 mingdan ortiq kasb-hunar va mutaxassislik turlari mavjud. Kasb va mutaxassislik degan tushunchalarning bir-biridan farqini anglash zarur.

Kasb ma'lum bir maxsus bilim, malakalarga ega bo'lishni talab etuvchi va insonning yashash sharoitini ta'minlovchi faoliyat turidir. Mutaxassislik inson o'zining jismoniy va ma'naviy kuchlaridan kelib chiqib o'sha sohaning birmuncha tor doirasida o'zini namoyon etishidir.

Kasb bir-biriga talqin bo'lgan mutaxassislik guruhlari o'zida birlashtiradi. Masalan, o'qituvchilik kasbi o'ziga tarix fani o'qituvchisi, matematika fani o'qituvchisi, texnologiya fani o'qituvchisi, biologiya fani o'qituvchisi kabi mutaxassisliklarni qamrab oladi.

Kasb tanlashning ikki xil yo'li mavjud: Birinchisi, ko'r-ko'rona turli xil sohalarida ishlab ko'rib kasb tanlash bo'lsa, ikkinchisi “sinash va xatolar” yo'li orqali o'sha yagona, insonning o'ziga mos bo'lgan, nafaqat daromad olib keluvchi, balki shu sohadagi faoliyatidan bahra oluvchi kasbni topishdan iborat hisoblanadi.

Keyingi bosqich kasb dunyosi bilan tanishish deb nomlanib, bu bosqichda u yoki bu kasb bo'yicha faoliyat yuritishda inson oldiga qo'yilgan talablarni o'rganishi hamda ularni o'zining qiziqishi, iqtidori imkoniyatlari bilan taqqoslashi kerak bo'ladi. Shundagina tanlangan kasb mazmun-mohiyatini aniq anglagan bo'lib hisoblanadi.

Kasb tanlashda inson salomatligining o'rni muhim ahamiyatga ega. Kishining salomatligi ma'lum bir kasb talablariga muvofiq kelish yoki kelmasligini aniqlash shifokorning vazifasidir. Shuning uchun ham ishga yoki o'qishga kirayotgan har bir kishi, albatta, tibbiy ko'rikdan o'tadi. Lekin ko'pincha shunday bo'ladiki, kishi o'zining nazarida kasb tanlab bo'lganidan keyin bunday tibbiy ko'rik amalga oshiriladi, keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o'z vaqtida shifokor bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga ega.



Hozirgi kunda kasb tanlashda kasb-hunar kollejlari ham faoliyat yuritadi. Unda yoshlarimiz o'zlari tanlagan soha bo'yicha o'qib chiqib, mutaxassislikka ega bo'lishi mumkin. Chunki har bir inson bilim olishi va kasb tanlashga alohida e'tibor berishi mumkin. Shu bilan birga, kishining rizq topadigan kasb hunari, ishi va xizmatining turi qanaqaligidan qat'i nazar, halol bo'lishi, yuritayotgan kasbi korida halollik va insofni o'ziga shior qilib olishi muhim sanaladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Texnologiya. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2020-yil.
2. J. A. Rustamov. Kasblar klassifikatsiyasi. Metodik qo'llanma. Guliston. 2014-y
3. Internet ma'lumotlari.



2-СИНФ МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ

Абдуллаева Моҳигул Эшқурбоновна

Узун тумани 23-умумтаълим мактаби

бошланғич синф ўқитувчиси

Телефон: +998994249476

abdullayeva.saodat.1973@gmail.com

Аннотация. Ушбу мавзуда куйидаги муаммолар ва уларнинг ҳал этиш методикаси ва амалиётга жорий этиш ва унинг самарадорлиги тўла ёритиб берилган. Бугунги кунда таълим муассасаларида ахборот технологияси фанини ўқитиш сифатини ошириш, таълим жараёнига замонавий ўқитиш методикасини жорий этиш, иктидорли ўқувчиларни кўпайтириш, халқаро миқёсда ўқувчиларнинг ўз ўрнига эга бўлиши учун мактаб давридаёқ, яъни 2-синфда математика фанини ўқитиш жараёнида ахборот технологияларидан кенг фойдаланишни талаб этади. Мақолада бу тушунчалар ўз аксини топган.

Калит сўзлар: ахборот, компьютер, “Масофавий таълим”, “Медиа таълим”, “Интернет форум”.

Технологиялар такомиллашиб боргани сари ўқитувчининг роли таълим жараёнини бошқариш бўлиб қолади. Лекин бу ҳолат ўқитувчининг таълимдаги ўрнини ҳеч камайтирмайди ва уни четга суриб чиқармайди. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш ўқитувчи вазифасини тубдан ўзгартиради. Анъанавий таълимда ўқитувчининг вазифаси ахборот бериш (мавзуни тушунтириш, такрорлаш, мустаҳкамлаш ва ҳ.к.) бўлса, ахборот-коммуникация технологиялари қўлланганда бу вазифаларни компьютер бажаради (ўқув материали компьютер хотирасига киритилган бўлади), ўқитувчининг асосий вазифаси ўқувчининг англаш фаолиятини бошқариш, ўқув жараёнини режалаштириш ва назорат қилиш бўлади.

Ахборот технологиялари, компьютерлашган дарсларнинг ўзигахосликлари куйидагилардан иборат:

- ўқув материаллари алоҳида – алоҳида бўлакларга (блокларга) бўлинади.;
- ўқув жараёни ҳам кетма –кет олиб борилади. Ўқув материали маълум бўлакларда фикр юритиб ўзлаштиришга мослаштирилади;
- ўқувчининг ўзлаштиришдаги ҳар бир ҳаракати назоратга олиниб, мониторинг йўлга қўйилади.
- ўқув – вазифани бажариб бўлиши билан ўқувчини ўзлаштириш учун навбатдаги вазифа бериб борилади. Шу тариқа босқичма – босқич ўзлаштиришга муҳит яратилиб борилади.
- вазифаларни бажаришда ўқувчи нотўғри жавоб қилса, ўша заҳотиёқ ёрдам кўрсатилади.
- бундай ташкил этилган дарсларда ҳар бир ўқувчи алоҳида – алоҳида мустақил иш юритади, шу асосда ҳар бир ўқувчи ўз имконият даражасида ўқув материали ва мазмунини ўзлаштириш имкониятига эга бўлади.
- масаланинг яна бир жиҳати шундаки, берилган мавзу материали мазмуни, бажариладиган натижалар ўқувчига ҳам, ўқитувчига ҳам аён бўлади.

Таълим жараёнига компьютер техникасининг кириб келиши таълим мазмунини янада бойитди. Хусусан, “Масофавий таълим” (ўқитишнинг замонавий усули), “Медиа таълим” (шахснинг оммавий ахборот воситалари орқали ривожланиш жараёни), “Интернет форум” ва бошқалар. Бунда энг асосий эътибор таълим оловчиларнинг мустақил таълим олишларига қаратилади.

Ўқувчиларнинг ҳаётий фаолиятлар давомида моддий борликдаги предметлар, атрофдаги воқеа-ҳодисалар, ўз ҳатти-ҳаракатлари, ижтимоий муносабатлар тўғрисидаги ахборотларни доимий таҳлил қилиши, баҳолаб бориш асосида эслаб қолиши, англаш асосида қўллай олиши ўрганилаётган ахборотнинг аҳамиятини тушунишида муҳим ўрин тутди. Ахборотларнинг таҳлили ва синтези ахборотларни ўзлаштиришнинг мукамал даражаси сифатида англаган ахборотни эслаб қолиш ҳамда қўллай олишга ёрдам беради. Ахборотларни таҳлил қилиш, хулосаларни синтез қилиш ахборотларни ўзлаштиришнинг мукамал даражаси ҳисобланиб, ўқувчиларнинг ахборотлар билан ишлаш компетенциясини ривожлантиришга хизмат



қилади. Зеро, ўқувчилар ўзлари англаган ахборотни эслаб қолади ва қўллай олади.

Ўрганилаётган ахборотнинг аҳамиятини тушуниш муҳим бўлиб, уларни ўзлаштиришда жалб қилиш, йўл йўриқлар бериш, қизиқиш уйғотиш каби тамойилларга асосланади. Бу ахборотларни баҳолаш асосида амалга оширилади. Инсон ҳаётий фаолияти давомида ўз хатти-ҳаракатлари, атрофдаги воқеа-ҳодисалар, ижтимоий муносабатлар, моддий борлиқдаги мавжуд предметлар тўғрисидаги ахборотларини доимий баҳолаб боради хусусан, ўқувчилар ҳам. Баҳолаш асосида улар тўғрисидаги ахборотларни эслаб қолади, тушунади ва қўллай олади.

Ўқувчиларнинг ўқув материалларини ўзлаштиришига ёрдам берувчи муҳим жиҳатлардан бири ўқувчининг фундаментал билимлар билан қуролланганлигидир. Уларнинг фундаментал ахборотлар захирасини яратиш таълим жараёнини доимий янги ахборотлар билан таъминлаш ва ўқувчилар томонидан мустақил ахборот захираларини яратиш асосида амалга оширилади.

Фойдаланилган адаббйётлар:

1. Қўчқорова Ф.М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралаштиришнинг дидактик параметрлари Пед. фан. фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент. 2018 йил. – 47 б.
2. Рузикулова Н.Ш. Бошланғич синфларда математика фанини ўқитишда информатика фанининг ўрни ва аҳамияти. «Информатика фанининг долзарб муаммолари» илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент. 2018. – Б. 236-238.
3. Рузикулова Н.Ш. Бошланғич синфларда математика фанидан Давлат таълим стандартларининг малака талаблари бўйича ахборотлар билан ишлаш компетенциясини шакллантириш // Педагогик маҳорат. – Бухоро. 2018. – №3. – Б. 136-139.



ОРГАНИЗАЦИЯ УСЛОВИЙ ТРУДА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ШВЕЙНОГО ПРОИЗВОДСТВА

Бабаджанова Н.А.

асс. Ташкентский институт
текстильной и легкой промышленности

Шамшиметова Г.Т.

магистр. Ташкентский институт
текстильной и легкой промышленности

Телефон: +998-97-709-99-63

Nozixon2020@mail.ru

Аннотация: Данная статья посвящена анализу основных гигиенических факторов организации условий труда швейного производства. Рассмотрено отнесение условий труда к тому или иному классу вредности и опасности по уровню химических факторов производства.

Ключевые слова: швейное предприятие, технологические процессы, предельно допустимые концентрации вредных веществ, условия труда, гигиенические нормативы, неблагоприятные факторы

При функционировании швейного предприятия от технологических процессов в помещении цехов выделяются пыль текстильных материалов, фенол, формальдегид и этиловый спирт. При дублировании клеевой вискозы происходит выделение фенола, формальдегида и аммиака. От котельной, предназначенной для отопления здания, и образующегося технологического пара при сжигании природного газа в атмосферу выбрасываются оксид углерода и диоксид азота. Предельно допустимые концентрации (ПДК) в воздухе рабочей зоны составляют: текстильной пыли - 5 мг/м³, фенола - 5 мг/м³, формальдегида - 0,5 мг/м³ и этилового спирта - 10 мг/м³. Вредные вещества, поступающие в атмосферу воздуха, должны иметь следующие ПДК: для аммиака 0,2 мг/м³, фенола 5 мг/м³ и формальдегида 0,5 мг/м³, диоксида азота 0,08 мг/м³ и оксида углерода 1,0 мг/м³. [1]

Гигиенические критерии условия труда подразделяют на четыре класса: оптимальные, допустимые, вредные и опасные.

Оптимальные условия труда (1-й класс) - условия, при которых сохраняется здоровье работающих и создаются предпосылки для поддержания высокого уровня работоспособности. Оптимальные нормативы производственных факторов установлены для микроклиматических параметров и факторов трудового процесса. Для других факторов условно за оптимальные принимаются такие условия труда, при которых неблагоприятные факторы отсутствуют либо не превышают уровней, принятых в качестве безопасных для населения.

Допустимые условия труда (2-й класс) характеризуются уровнями факторов среды и трудового процесса, которые не превышают установленных гигиенических нормативов для рабочих мест, а возможные изменения функционального состояния организма восстанавливаются во время регламентированного отдыха или к началу следующей смены. Они не должны оказывать неблагоприятного действия в ближайшем и отдаленном периоде на состояние здоровья работающих и их потомство. Допустимые условия труда условно относятся к безопасным.

Вредные условия труда (3-й класс) характеризуются наличием вредных производственных факторов, превышающих гигиенические нормативы и оказывающих неблагоприятное действие на организм работающего или его потомство.

Вредные условия труда по степени превышения гигиенических нормативов влияют на организм работающих. Их подразделяют на четыре степени вредности:

- **1-я степень 3-го класса (3.1)** - условия труда характеризуются такими отклонениями уровней вредных факторов от гигиенических нормативов, которые вызывают функциональные изменения, компенсирующиеся, как правило, при более длительном (чем к началу следующей смены) перерыве контакта с вредными факторами и увеличивают риск повреждения здоровья;



- **2- я степень** 3-го класса (3.2) - уровни вредных факторов, вызывающие стойкие функциональные изменения, приводящие в большинстве случаев к увеличению производственно обусловленной заболеваемости (что проявляется повышением уровня заболеваемости с временной утратой трудоспособности и, прежде всего, теми болезнями, которые отражают состояние наиболее уязвимых органов и систем для данных вредных факторов), появлению начальных признаков или легких (без потери профессиональной трудоспособности) форм профессиональных заболеваний, возникающих после продолжительной экспозиции (часто после 15 и более лет);

- **3- я степень** 3-го класса (3.3) - условия труда, характеризующиеся такими уровнями вредных факторов, воздействие которых приводит к развитию, как правило, профессиональных болезней легкой и средней степени тяжести (с потерей профессиональной трудоспособности) в периоде трудовой деятельности, росту хронической (производственно обусловленной) патологии, включая повышенные уровни заболеваемости с временной утратой трудоспособности;

- **4- я степень** 3-го класса (3.4) - условия труда, при которых могут возникать тяжелые формы профессиональных заболеваний (потерей общей трудоспособности), отмечаются значительный рост числа хронических заболеваний и высокие уровни заболеваемости с временной утратой трудоспособности. [2,3].

Опасные (экстремальные) условия труда (4-й класс) характеризуются уровнями производственных факторов, воздействие которых в течение рабочей смены (или ее части) создает угрозу для жизни, высокий риск развития острых профессиональных поражений, в том числе и тяжелых форм.

Литература:

1. Софоновский В. И. Охрана труда на текстильных предприятиях. М. Легпромбытиздат. 2002. 184 с.
2. Стадницкий Т.В. Экология : учеб. пособие. Т.В. Стадницкий, А.И. Родинов. М. : Высшая школа, 1988. 272 с.
3. Маслова Т.Б. Безопасность жизнедеятельности и экологичность в проекте швейного предприятия по изготовлению детской одежды (утепленная куртка для мальчика). Научный электронный архив.: 2021.



ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОДИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИЙ ДЛЯ ВВОДА В БАЗУ ДАННЫХ ПРОЦЕССА ПРОГНОЗИРОВАНИЯ

Базарбаева Г.Г. к.т.н., доц., Абдужабборов Д.А. магистрант.

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Телефон: +998-99-004-23-79

Эл.почта: TemirovaGG@mail.ru

Аннотация: Статья представляет структуру базы данных процесса прогнозирования материалоемкости новой модели швейных изделий. С целью формализации информации проведена систематизация, классификация и кодирование характеристик ассортимента базовых моделей и материалов.

Ключевые слова: база данных, процесс прогнозирования, материалоемкость, систематизация информации, базовые модели, ассортимент швейных изделий.

Основной характеристикой базы данных является ее структура. Под структурой понимается относительно постоянный порядок внутренних пространственно-временных связей между отдельными элементами системы и их взаимодействия с внешней средой, определяющей функциональное назначение системы. Структура базы данных построена по иерархическому принципу, т.е. ее можно представить в виде композиции элементов различных уровней. (Рисунок 1).

На основе проведенных исследований с целью формализации информации проведена систематизация, классификация и кодирование характеристик ассортимента базовых моделей и материалов. Кодирование информации - технический прием, позволяющий представить классифицируемый объект в виде группы знаков по правилам, установленным той или иной системой классификации. Кодирование позволяет представить информацию об объектах в виде удобном для ее автоматизированного сбора, передачи и обработки. [1,2]. Преимуществом предложенной структуры базы данных является возможность ее дополнения в случае появления принципиально новых моделей по конструктивно-технологическим параметрам и возможность перехода на другой более детализированный уровень прогнозирования расхода




Рисунок 1. Структура базы данных процесса прогнозирования материалоемкости новой модели швейно-трикотажного изделия.

трикотажного полотна на стадии эскизного проектирования новой модели. Применение базы данных позволит оперативно получить необходимую информацию, не обращаясь к дополнительным источникам, что позволит сэкономить достаточное количество времени, оперативно выполнить анализ этой информации и с помощью методики рассчитать прогнозную стоимость материалов новой модели по эскизу изделия, основываясь на имеющихся данных.

Литература.

1. Хабрейкен, Джо. Изучи Microsoft Access 2002 за 10 минут.: Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2002.
2. Алан Р. Стратегические технологии баз данных: менеджмент на 2000 год./Алан Р., Саймон Д. -М. Финансы и статистика, 1999.



TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kulatova Nargiza Rustamovna

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

23-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanining o'ziga xos xususiyatlari, uning maktablarda o'qitilishdan ko'zlangan ta'limiy maqsadlar to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, mehnat, qo'l mehnati, mustaqil faollik, mehnat malakalari, metod, usul.

Ilmiy-texnik tafakkurning takomillashuvi, yoshlarning fan-texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarda takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar har qanday faoliyatga ijodiy yondashishi asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Texnik mehnatga o'rgatishning ahamiyati texnik mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlar, agarda unda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyimni yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvoffaqiyatli chiqmagan bo'lar edi. Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini qo'llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarni singdirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijobiy qobiliyatlarni hamda bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o'stirishga yordam bermoqda.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek muammoning xilma-xil usullari qo'llanib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishlariga, uning bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi. O'qitish usullari doim ham zamonaviy maktablarda qo'llangandek bo'lavermaydi. Maktab rivojlanib borgan sari o'qitish usullari ham o'zgarib boradi. O'tmish maktablarida o'qish jarayonida bo'ysundirish turi hukmronlik qilgan. Bolalar dars mazmunini anglamay ko'r-ko'rona yod olishga o'rganganlar.

Ijtimoiy taraqqiyot, ishlab chiqarishning rivojlanishi ta'sirida o'quv jarayonining anchagina mukammallashtirish turi – tushuntirish vujudga kelib, u uzoq muddat eski maktab bilan birga mavjud bo'lgan. Bu turdagi o'qitishning kerakli xususiyati bayon etilayotgan matnni avval tushunishni, so'ngra yod olishni nazarda tutar edi. Bayonni yaxshiroq tushunish uchun ko'rgazmalilikka ko'proq e'tibor berila boshladi. Bu olg'a qo'yilgan qadam edi. Endi o'quvchi xotirasiga analitik-sintetik tafakkur faoliyati ham qo'shildi. O'quvchilar bayon etilayotganini aynan buyumni emas, balki o'z so'zlari bilan buyumni bajarilishini yod etishlari talab etiladi. Biroq asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning turli muammolarga boy va zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirildi va unga sayqal berdi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu, kichik mavzu, mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq qiladigan ishni usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo'l mehnatini o'rganish ham zamonaviy pedagogikaning ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablarga muvofiq tarzda amalga oshirishi kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi hatti-harakati, darsda o'quvchilarning diqqat va e'tibori susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning charchamasligi va zerikmasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shu narsaga o'rgatishi kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq, shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim birinchi qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga



ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashi kerak. Ular darsda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulot kabi usullardan foydalanib, o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganlarni mustahkamlash kabi dars etaplarini boshdan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirilgandan keyingina sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

O'qitish usullari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, buyumning istalgan o'lchami bo'yicha chizib egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munavvarov T. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 1996.
2. Mavlonova R. A. Mehnat ta'limi metodikasi T.: O'qituvchi, 1986.
3. Shmuleevich M. M. Qog'ozdan modellar yasash. T.: O'qituvchi, 1990.



РОБОТЫ БУДУЩЕГО, КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Сайфиева Ойгул Нематовна

oygule4ka@gmail.com

Преподаватель Андижанского машиностроительного института

Телефон +998(93)782 51 27

Муминов Зиёдулло Музаффар угли

muminovziyodillo@gmail.com

Студент 1-курса факультета управления технологическими
процессами и компьютерных технологий

Андижанского машиностроительного института

Аннотация: В статье описаны направления коллабораций технологий и людей в разных направлениях, их виды; предложения по их пропаганде и в целях улучшения качества жизни человечества. Выдвинуты идеи применения различных видов роботов в сферах деятельности человека, сотрудничества искусственного и человеческого интеллектов для эффективной производительности труда.

Ключевые слова: человек, задачи, робототехника, робот, коллаборация, инновации, технологии, программа, программирование, экономический.

Жизнь человека в 21 веке всегда связана с электронными устройствами - смартфонами, компьютерами, планшетами и т.д. Логично, что и сами профессии связаны с этими девайсами. Как отметил старший экономист отдела экономики и статистики ВОИС, Джулио Раффо, «Робототехника – технологическая область, создающая роботов для различных сфер применения: в производстве автомобилей, строительстве, школах, больницах, домашнем хозяйстве и других отраслях. В автопромышленности и других промышленных секторах роботы-манипуляторы применяются уже не одно десятилетие. Но новейшие научные достижения в таких сферах, как искусственный интеллект и когнитивные науки, позволили создать автономных «усовершенствованных» роботов с разносторонним потенциалом для решения экономических и социальных задач»[3,8].

Роботы могут стать возможным инструментом повышения экономической эффективности. Взаимодействие роботов и людей развивается по четырем (на нынешний день) основным направлениям:

- робот как инструмент, повторяющий возможности человека (например, экзоскелеты и протезы);
- робот как инструмент, расширяющий возможности человека;
- робот-аватар, то есть машина, дистанционно управляемая человеком в труднодоступных местах;
- социальное взаимодействие с человеком, например, голосовые помощники и чат-боты.

Сегодня роботы обрели общепризнанное понятие, как основа развития промышленности, метод облегчения физического и умственного труда, ресурс инноваций и т.п. Конечно, в будущем развитие робототехники будет во многом зависеть от смежных отраслей: науки о материалах и достижений компьютерной техники. Но нам нужно стремиться не к замене людей роботами, а их сотрудничеству, только так можно достигнуть наилучшего результата поставленной цели или задачи[5].

Ярким примером такого типа сотрудничества является медицина. Очевидно, что инженерия «подала руку помощи» в методах лечения пациентов, открыла направление биоинженерии, что привело к более эффективному методу проведения операционных процедур. Главной целью развития медицинской робототехники является высокая точность и качество обслуживания, повышение эффективности лечения, уменьшение рисков нанесения вреда здоровью человека [1,115]. Но не смотря на достижения техники и технологий, специалисты здравоохранения не всегда осведомлены о них, а инженеры не имеют полной информации о потребностях современной медицины. Эта проблема может быть решена при коллаборации изобретателей с врачами-профессионалами при решении таких вопросов.

В Узбекистане, впервые за много лет, стали уделять пристальное внимание технологиям



и инновациям, в частности, робототехнике. Строится всё больше IT-парков, где молодёжь может продуктивно провести свой досуг и научиться чему-то новому [4]. У нас сформирован робот в образе человекоподобной машины с конечностями, способной ходить и разговаривать. Но спектр их гораздо шире. Роботизация не обязательно должна иметь оболочку - искусственный интеллект, в виде голосового помощника или бот тоже могут быть примерами инноваций.

На сегодняшний день роботы помогают нам во многих сферах деятельности. Автоматизированные линии на производстве, бионические протезы в медицине, роботы-саперы или автоматические системы пожаротушения – все это робототехника. Ритм жизни не позволяет тратить драгоценное время на набор текстовых команд, и все больше пользователей прибегают к помощи голосовых ассистентов.

Отметим некоторые аспекты в процессе развития робототехники в Узбекистане. Самым актуальным вопросом является расширение спектра применения промышленной робототехники и технологий манипулирования, так необходимо преодолеть ряд вызовов:

- Снижение стоимости. Роботы становятся более простыми в управлении и программировании, что делает их использование доступным для многих компаний, в особенности для предприятий малого и среднего бизнеса.

- Расширение спектра процессов, где применяются роботы. Использование специализированного программного обеспечения, позволяющего автоматизировать программирование роботов, открывает новые ниши применения промышленной робототехники.

- Техническое зрение и системы захвата. На данный момент спектр операций, выполняемых роботами, ограничен однотипными задачами. Захват объектов, различных по форме и весу - трудоёмкая задача, на её решение в настоящее время направлены усилия ведущих разработчиков.

- Коллаборация. Оснащение роботов сенсорами позволяет безопасно контактировать людям с роботами. Так, коллаборативные роботы могут быть оснащены режимом обучения через запоминание перемещения манипулятора, что упрощает взаимодействие человека и робота, так как не требует дополнительного программирования [2,55-67].

Важными факторами для развития робототехники являются готовность спроса и развитие компаний-интеграторов. Промышленная робототехника развивается в ответ на запросы, появляющиеся в индустрии. В связи с этим высока потребность в стимулировании заказчика через информирование о передовых практиках, программы переобучения и льготное финансирование.

Список использованной литературы:

1. Овсяницкая Л. Ю., Юрасова Е. В. Мехатроника и робототехника как инновационное звено в развитии инженерного и медицинского образования//Вестник ЮУрГУ// Серия Компьютерные технологии, управление, радиоэлектроника- Т. 15, № 3. 2015 С. 115-123.
2. Перспективные направления применения робототехники в бизнесе/Министерство связи и массовых коммуникаций Российской Федерации, (НАУРР) 25.23.2020.74с.
3. Эндрю Кайснер, Джулио Раффо, Саша Вунш-Винсент Робототехника: прорывные технологии, инновации, интеллектуальная собственность// Форсайт, Т. 10 № 2, 2016, 25с.
4. <https://it-park.uz/ru/itpark/news/razvitie-robototekhniki-v-uzbekistane>
5. <https://trends.rbc.ru/trends/innovation/>



YANGI MODELLARNI ISHLAB CHIQUARISHDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ATROF-MUHITGA TA'SIRINI O'RGANISH

**Magistrant K.Xudoyberdiyeva, Magistrant O.Xodjayeva
ilmiy rahbar Sh.G.Madjidova**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Телефон: +99894600-72-74

shairamadzidova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi modellarni ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar, mehnat unumdorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar, ya'ni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, yangi samarali uskunalar va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etilish jarayonining atrof-muhitga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat unumdorligi, zamonaviy texnika va texnologiya, texnologik jixozlar, ishlab chiqarish, ishchi xodim.

Bugungi kunda respublikamizda bir qator tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorida tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga, shu sohada faoliyat yurituvchi korxonalarga imkoniyatlar kengaytirilgan va bir qator talablar qo'yilgan. Mazkur maqolada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan yengil sanoat korxonalarining mehnat unumdorligini oshirishda atrof-muhitning ta'siri to'g'risida yoritib berilgan.

O'zbekistonning ichki va tashqi bozorini yangi turdagi sifatli tikuv-trikotaj mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida yangi turdagi modellarni ishlab chiqarish, korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini zamonaviy texnika texnologiyalar natijasida takomillashtirish, korxonalarda tajribali kadrlarni ishlashini ta'minlash bugungi kundagi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumdorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat unumdorligi – bu hodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. Mehnat unumdorligini oshirishga bir qator omillar ta'sir qiladi. Bular:

1. Mahsulotning raqobatbardoshligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mahsulotga qo'yiladigan talab va taklifni o'rganish, tikuvchilikka ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati bilan tanishish. Avvalo korxona uchun qulay bo'lgan joyni tanlash, ishchi xodimlar sog'ligi va atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan, aholi yashash joylarida bo'lsa, ularga halal bermaydigan joyni tanlash zarur.

2. Ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar, texnika va texnologiyalardan foydalanilganligi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida turli xildagi tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimlar joriy qilingan bo'lib, ular orqali yangi modellarni ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirish mumkin. Turli xildagi dasturlashgan avtomatlar orqali kiyimlarga ishlov berish jarayonlarini takomillashtirishga erishish mumkin.

3. Korxonada ish o'rinlarini to'g'ri tashkil etish. Korxonadagi texnika va jixozlarni ishchi xodimlarning erkin ishlashiga halal bermaydigan, shu bilan birga texnika qoidalariga rioya qilgan tartibda joylashtirish mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda ishchi xodimlarning ish jarayonida shikastlanishini ham oldini oladi.

4. Xodimlar uchun muqobil sharoit yaratish. Korxonada ish olib borayotgan xodimlarga yil davomida qulay bo'lgan sharoit yaratib berish ishlab chiqarish jarayonini muqobillashtiradi va to'xtalishlar sonini kamaytiradi. Bunda xonalardagi ventilyatsiya tizimini barqaror ishlashini ta'minlash, xonadagi issiqlik almashinish jarayonini mo'tadillash, xonaning yoritish tizimini uzluksiz ishlashini ta'minlash zarur.

5. Xodimlar malakasini oshirish. Hozirgi axborot texnologiyalari asrida hamma sohada jadal rivojlanishlar, yangiliklar bo'lmoqda. Shunday ekan mehnat unumdorligini oshirishda xodimlar malakasini ham oshirib borish korxona muvaffaqiyatining kaliti hisoblanadi. Malakali xodim ish jarayonida texnologik va ekologik qoidalarning barchasiga amal qiladi va korxonaga daromad olib keladi.



Xulosa qilib aytganda yangi modellarni ishlab chiqarishda avvalo biznes rejani aniq tuzish, korxona uchun maqbul joyni tanlash, ishlab chiqarish sohasidagi oxirgi yangiliklar bilan tanishish va raqobatdoshlarining ish faoliyatini qunt bilan o'rganish, ularda mavjud bo'lgan kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik, korxonada mavjud bo'lgan texnika va jixozlardan to'g'ri va aniq foydalanish, ishchi xodimlar uchun maqnul sharoit yaratish korxona faoliyatining rivojlanishi davrida atrof –muhitga va ishchi xodimlarga ziyon yetkazmasdan, hech qanday to'xtalishlarsiz mehnat unumdorligining ortishiga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.G. Madjidova, M.K. Rasulova, Texnologik jarayonlarni loyihalash. Darslik.-T., TTYESI, 2011.-1776.
2. Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Дель Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие.-М.; МГУДТ, 2004.-283с.
3. Parelta. V.B., Sims, C.V., Palma, P.J.M., Fernandez, L.C, Del Mundo, J.R., Santiago, B.R, Dinglasan, J.M.N Increasing productivity in garments manufacturing through time standardization and work measurement. Volume 2019, Issue MAR, 2019, Pages 1719-1726



POLISEMANTIK SO'ZLARNI KONTEKSTDA SEMANTIK TAHLIL QILISH MODELLARI

Axmedova Xolisa Ilxomovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
xolisa9029@mail.ru

Annotatsiya: Ko'p ma'noli so'zlarni semantik tahlil qilishning jahon tajribasi o'rganiladi. O'zbek tilidagi polisemantik so'zlarning vujudga kelish usullari yoritiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning so'z turkumlari doirasidagi klassifikatsiyasi keltiriladi. O'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'z misolida semantik analiz qilish grafik ko'rinishda beriladi.

Kalit so'zlar: Polisemiya, semantik analizator, ko'p ma'noli so'z, semantik tahlil, matematik model.

“Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi!” deya ta'riflaydi M.Mirtojiyev. Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no ko'chish usullari kuzatiladi. Polisemantik so'zlarni semantic tahlil qiluvchi tizim yaratish uchun tahlil qilish omillari, matematik modellari zarur.

M.Mirtojiyev ko'p ma'noli so'zlarning vujudga kelishini quyidagicha xarakterlaydi:

1. O'zbek tilidagi polisemantik so'zlar yo ko'chma ma'no, yo evfemistik, disfemistik ma'no, yo yasama ma'no hisobiga sof holatda tarkib topishi ham mumkin
2. Ular ham hosil bo'lgan, ham yasalgan ma'nolardan aralash holatda ham tarkib topaveradi.
3. Polisemantik so'zlar vujudga kelishida ko'chma ma'nolar asosiy o'rinda turadi. Ko'pincha evfemistik vadisfemistik ma'nolar ham ularga teng bo'ladi.
4. Yasama ma'nolar hamma vaqt leksik bo'lib, polisemantik so'zlarni so'zsiz vujudga keltiradi. Ko'chma, evfemistik va disfemistik ma'nolarda bunday deb bo'lmaydi.

Polisemantik va omonim so'zlar bir biriga yaqin so'zlar. Shu bois ham omonimiya va polisemiya hodisalarini o'rganish masalasi hozirgacha dolzarbligini yo'qotmagan. Ularning kichik farqli xususiyati sifatida *omonim* tor ma'nodagi tushuncha, *polisemiya* esa keng ma'nodagi tushuncha ekanligini keltirish mumkin. Tilshunoslar tomonidan o'zbek tilida omonim va polisemantik so'zlarni farqlashning 8 ta jihati borligi aytib o'tilgan.² Ularni farqlovchi jihatlardan kelib chiqib quyidagi jadvalni keltiramiz.

Xususiyat	Polisemantik so'zlar	Omonim so'zlar
Semantik farqi	Kontekstda	Ma'no va etimologiyasiga ko'ra
Kontekstdagi roli	Muhim	Muhim bo'lmashligi mumkin


Ushbu jadval ma'lumotlariga qaraganda, polisemantik so'zlarni farqlashni kontekst asosida amalga oshirish mumkin. Dunyo bo'yicha eng ko'p muloqot qilinadiga til bu xitoy tili hisoblanadi. Bu til polisemantik so'zlardan holi emas. Xitoy lug'atining 14% ko'p ma'noli so'zlar bo'lib, bu so'zlar tez-tez ishlatiladigan so'zlardir. Xitoy tili korpusidagi ma'lumotlarning 42% ini polisemantik so'zlar tashkil qiladi. Ko'p ma'noli so'zlar dunyoning barcha tabiiy tillarida o'zining ko'rsatkichlariga ega. Jahon tajribasiga ko'ra, ko'p ma'noli so'zlar ehtimollar nazariyasiga asoslangan holda semantic tahlil qilinadi. Kontekst asosida farqlash uchun ham albatta mutaxassislarning qo'l mehnati zarur. Ko'p ma'noli so'zlarni kontekstda farqlovchi modellarni ishlab chiqish uchun ularni guruhlariga ajratiladi. Ajratilgan guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. O'rganilgan xususiyatlar asosida qoidalar ishlab chiqiladi. Polisemantik so'zlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi.

¹ Miraziz Mirtojiyev. O'zbek tilida polisemiya//Toshkent fan nashriyoti. 1984;

² Hamroyeva M. Omonimlar va polisemantik so'zlarning fonetik mutanosibli va semantik tafovutlari// 2021



Maqolada polisemantik so'zlarni so'z turkumlariga ajratgan holda farqlashni tavsiya qilmoqchimiz. Masalan, *ko'z* so'zining quyidagi ierarxiyasini keltiramiz.





Ierarxiyadan ko'rinadiki jonli tabiatga doir polisemantik so'zlarni semantik tahlil qilish uchun bu so'zlar bilan birika oladigan so'zlar guruhlarini yig'ilgan bo'lishi kerak. Ierarxiyada keltirilgan jonli tabiatga so'zlarga izoh bersak:

Hayvon:

Laqablar: olapar, bo'ribosar, mosh, ...

Turlari: It, kuchuk, mushuk, ot, sher,...

Huddi shunday qushlarda ham.

Inson:

Kasbni ifodalovchi so'zlar: o'qituvchi, shifokor, tadbirkor, ...


Insonlarning ismlarini ifodalovchi so'zlar: Aziza, Shoir, Anvar, ...

Qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar: ota, ona, aka, uka, ...

Yig'ilgan so'zlar yordamida *bosh, quloq, kalla, oyoq, tirnoq* kabi polisemantik so'zlarni ham semantik tahlil qilish mumkin. Ierarxiyada tasvirlangan so'z guruhlarini to'planishi muammoni to'liq yechimi bo'la olmaydi.

Anor xolaning **ko'zi** tekkan aslida, aks holda o'qishga kirgan bo'lardi.

Namunada berilgan *ko'z* ko'p ma'noli so'zi xola so'zi bilan birikkan, lekin *ko'z* so'zidan keyin **tekkan** so'zining uchrashi ko'chma ma'noga olib keladi. Undan kelib chiqadiki, ko'p ma'noli so'zning o'ng va chap birikuvchilari o'z va ko'chma ma'no hosil qilishiga ko'ra ham guruhlariga ajratilishi lozim.



Ko'z so'zining o'z va ko'chma ma'nolarini hosil qiluvchi birikuvchilari tasvirlangan ierarxiyalarda ko'rsatilgani kabi so'zlarni guruhlariga ajratish kerak. So'zlarni biror bir xususiyatga ko'z guruhlariga ajratish **segmentatsiya** deyiladi. So'zlarning qancha kichik-kichik guruhlariga ajratilsa ko'p ma'noli so'zlarning semantik tahlili shuncha aniq bo'ladi.

Xorijiy tajribalarga ko'ra ko'p ma'noli so'zlarni semantik tahlil qilishda statistik metodlardan foydalanish eng ma'qul yechim. Tadqiqotchi Sh.Gulyamova o'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni semantik tahlil qilishi borasida o'z fikrlarini bayon qilgan¹. O'zbek tilidagi polisemantik so'zlarni semantik tahlil qilishda ham Markov modellaridan foydalanishni tavsiya qilinadi².

¹ Sh.K.Gulyamova. Polisemiya lingvistik xodisa sifatida// "O'zbekistondagi amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi on-line konferensiya

² Axmedova X. MATHEMATICAL MODELS THAT DISTINGUISH HOMONYMY IN THE FRAMEWORK OF A WORD SERIES// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING OCTOBER, 2021-10/1. ISSN 2181-9750



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Miraziz Mirtojiyev. Ozbek tilida polisemiya// Toshkent fan nashriyoti. 1984;
2. Hamroyeva M. Omonimlar va polisemantik so'zlarning fonetik mutanosibligi va semantik tafovutlari// 2021
3. Sh.K. Gulyamova. Polisemiya lingvistik xodisa sifatida// "O'zbekistondagi amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi online konferensiya
4. Axmedova X. Mathematical models that distinguish homonymy in the framework of a word series// Electronic journal of actual problems of modern science, Education and training October, 2021-10/1. ISSN 2181-9750
5. Divya Godayal, An introduction to part-of-speech tagging and the Hidden Markov Model// 2018.
6. Ladanova E.O., Yamashkin S.A. "Semantic analyzer for the selection of facts from text messages" международный научно-исследовательский журнал, international research journal, Екатеринбург-2017

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(16-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000